

O'ZBEKISTON SSRDA QULOQLASHTIRISH VA KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATI. ULARNING SABAB VA OQIBATLARI

Bobojonova Zuxra Farxod qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch

davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on

qurbonlar xotirasi muzeyi katta ilmiy hodim Tel: +999661494

Email: farhodovna01@gmail.com

Orcid : <https://orcid.org/0009-0001-4012-3131>

Annatatsiya. Maqolada O'zbekistonda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati va uning oqibatlari yoritilgan. Arxiv manbalari asosida quloq xo'jaliklari egalari ta'qib qilinishi, surgunlar va kolxozlardan chiqarish jarayonlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jamoalashtirish siyosati ijtimoiy tenglikni maqsad qilgan bo'lsa-da, amalda ocharchilik, majburiy ko'chirish va iqtisodiy inqirozga olib kelganligi analiz qilinadi.

Kalit so'zlar: quloqlashtirish, kollektivlashtirish, kolhoz, sovxoz, NEP, ocharchilik

ПОЛИТИКА РАСКУЛАЧИВАНИЯ И КОЛЛЕКТИВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТОН ССР: ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. В статье освещается политика коллективизации, проведённая в Узбекистане, и её последствия. На основе архивных материалов рассматриваются преследование владельцев кулацких хозяйств, ссылки и процессы исключения из колхозов. По результатам исследования показано, что, хотя политика коллективизации была направлена на обеспечение социальной справедливости, на практике она привела к голоду, принудительным переселениям и экономическому кризису.

Ключевые слова: раскулачивание, коллективизация, колхоз, совхоз, НЭП, голод.

THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND COLLECTIVIZATION IN THE UZBEKISTAN SSR: CAUSES AND CONSEQUENCES

Annotation. The article highlights the collectivization policy carried out in Uzbekistan and its consequences. Based on archival sources, it examines the persecution of kulak households, deportations, and the process of exclusion from

collective farms. The study concludes that although the collectivization policy aimed to ensure social equality, in practice it led to famine, forced resettlements, and economic crisis.

Keywords: dekulakization, collectivization, kolkhoz, sovkhoz, NEP, famine.

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Sovet hukumoti tomonidan kollektivlashtirish ishlari qishloq xo'jaligida mulkdorlar tabaqasini tugatish maqsadida 1925- 1929- yillarda yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Bu boqich o'z oldiga katta yer egaligini (rasmiy hujjatlarda "quloqlar", "mushtumzo'rlar" deb yuritilgan) butunlay cheklash va ularni sinf sifatida tugatish masalasini qo'ydi. "Agrar inqilob"ning strategiya va taktikasi O'zbekiston Kompartiyasining II syezdi (1925-yil noyabr)da tasdiqlandi. Bu bosqich O'zbekiston SSR MIKning 1925-yil 2-dekabrdagi "Suv va suvni natsionalizatsiya qilish to'g'risida" va "Yer-suv islohoti to'g'risida"gi dekretlari bilan boshlandi. Bu islohot O'zbekistonda joylardagi shart-sharoit va tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda o'tkazildi. Yer-suv islohotini o'tkazish to'g'risidagi dekretga asosan Farg'ona viloyatida 40 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatina va undan ortiq sug'oriladigan yerlari bor katta yer egalari xo'jaliklari butunlay tugatilishi, ularning yerlari davlat yer fondiga o'tkazilishi va dehqonlarga bo'lib berilishi nazarda tutilgan edi. Yer bilan birgalikda barcha ishchi hayvonlari (ho'kiz, ot va b.), dehqonchilik asbob-uskunlari ham musodara qilindi [2]

Yuqorida keltirilgan mulkdor yoki o'ziga to'q dehqon xo'jaliklari o'z xo'jaligini 1921- yilda Vladimir Lenin tomonidan taklif etilgan Sovet Ittifoqining iqtisodiy siyosati davrida tiklab olgan edi. NEP yoki yangi iqtisodiy siyosat davrida, ya'ni asosan, 1921-1929-yillarda Turkistonda ham bozor munosabatlari qaror topib, qishloqda xususiy mulkchilik rivojlandi, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish sezilarli darajada o'sdi.[3]

Aynan shu davrda mehnatkash dehqonlar tadbirkorlik qilib Sovet hukumatini oyoqqa turg'azdi. Shunga qaramasdan Stalin davrida 1929-yilga kelib bu siyosat tugatildi. NEP islohotlari davrida mulkka ega bo'lib olgan tadbirli yer egalari 1929-1933- yillarda asosiy qatag'onga olindi. Kollektivlashtirish deb nom olgan bu siyosatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: Qishloq xo'jaligini ijtimoiylashtirish: Kollektivlashtirish orqali qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini davlat nazoratiga olish va dehqonchilikni yirik kollektiv fermer xo'jaliklariga aylantirish. Industrializatsiyani qo'llab-quvvatlash: Qishloq xo'jaligidan olingan resurslarni (xom ashyo va ishchi kuchi) sanoat sektori uchun ajratish va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish. Sovet iqtisodiyotining markaziyashtirilishi: Kollektivlashtirish yordamida qishloq xo'jalik

mahsulotlarini davlat tomonidan nazorat qilish va tarqatish, shuningdek, iqtisodiy rejalashtirish va resurslarni markazlashtirishni amalga oshirish. Ijtimoiy tenglikni ta'minlash: Kollektivlashtirish orqali qishloqdagi ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirish va "boy dehqon" (kulak) qatlamini yo'q qilish. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni kuchaytirish maqsadida amalga oshirildi. Qishloq xo'jalik ishchilarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: Yirik kollektivlar orqali ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va qishloq xo'jalik texnologiyalarini yangilash.[4]

TADQIQOT OBYEKTI VA USLUBI (ОБЪЕКТ И МЕТОД ИССЛЕДОВАНИЯ, RESEARCH OBJECT AND METHOD)

1920-1930- yillarda O'zbekiston SSRda milliy daromad anchagina bo'ib aholi orasida dehqonlar ko'pchilikni tashkil etgan. Hududdagi agrar masalani hal qilish joylardagi taraqqiyot yechimi vazifasini o'tadi. Oktabr to'ntarishi o'zbek dehqonlarining statusini tubdan o'zgartirib yubordi. 1917-1924- yillardagi sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan agrar islohot dehqonlar tomonida yaxshi kutib olindi. Revalutsiya dehqon ommasida siyosiy faoliyatni uyg'otdi. Bu hol ularning sovet partiyalarida Komsomol va boshqa sinfiy tashkilotlardagi faol ishtirokida namoyon bo'ldi. ."[1, C 42]

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Raxima Aminovanning yuqoridagi tahlili sovet hukumatining agrar sohadagi amalga oshirgan 1- bosqich rejali siyosati yaxshi natijalar berganligini ko'rsatadi ya'ni, o'zgarish natijasida dehqon ommasi siyosatda faollasha boshlaganini aytib bunga misol tariqasida "qo'shchi" uyushmasini ham ko'rsatgan. Modomiki keying bosqichlarda Sovet rahbariyati tomonidan qo'llanilgan metodlar qishloqlarda sinfiy qatlamni tugatishga qaratilganiga qaramasdan ko'plab yo'qotishlarga olib keldi.

Unga ko'ra, xususiy tadbirkor va o'ziga to'q dehqon xo'jaliklariga qarashli yerlar davlat foydasiga tortib olinib, ularning o'rnida davlat xo'jaliklari (sovxoz) va jamoa xo'jaliklari (kolxozlar) tashkil etildi. Yeri tortib olingan zamindorlar, boy dehqon xo'jaliklari, o'ziga to'q xonadon sohiblari kolxozlashtirishga qarshi chiqishi mumkin deb, ichki ishlar xodimlari tomonidan xalq dushmani deb e'lon qilindilar. "Quloq" qilinganlar Ukraina, Sibir va Qozog'istonning odam yashamaydigan cho'llariga, o'rmonlarga surgun qilindi. "Mehnatkashlar uchun" amalga oshirilgan jamoalashtirishning mamlakat xo'jaligi uchun yutug'idan ko'ra zarari ko'proq bo'lib chiqdi. Chunki bu tadbir o'zbek xalqining yer mulkchiligi bilan bog'liq bir necha ming yillik tarixiy an'anasiga tamomila zid amaliyot edi. Shuning uchun ham jamoalashtirishga qarshi noroziliklar aksariyat hollarda siyosiy tus ham olgan edi.[5]

1930-yil 17-fevralda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining "Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. O'zbekistonda 1930-yili yalpi kollektivlashtiriladigan 19 ta tuman Markaz tomonidan

belgilab berildi. O'zbekistonda dastlabki kolxozlar (jamoat xo'jaliklari) va sovxozlar (davlat xo'jaliklari) tashkil qilindi. 1931-yilning bahoridan boshlab O'zbekistonda yalpi jamoalashtiriladigan tumanlar qaytadan tuzildi. O'zbekiston qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish rasman 1932-yili tugallandi. Shu vaqtga kelib respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 75 foizi umumiyashtirilgan sektorga, ya'ni kolxoz va sovxozlarga birlashdi. 1932-yili respublikada 60 dan ziyod sovxoz bor edi. Yakka dehqon xo'jaliklarining bir qismi kolxozlardan tashqarida qoldi, lekin ularga iqtisodiy jihatdan tazyiq o'tkazish yanada kuchaydi. Bunday xo'jaliklarga solinadigan qishloq xo'jalik soliqlari oshirildi, davlatga majburan topshiriladigan mahsulot hajmi ham kolxozlarga nisbatan 50 foizga ko'paytirildi. 1939-yilga kelib O'zbekistonda yakka dehqon xo'jaliklariga butkul barham berildi.[2]

TATQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI (РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ОБСУЖДЕНИЕ, RESEARCH RESULTS AND DISCUSSION)

Kolxozlarda quloq xo'jaliklarini taqib qilish nihoyatda avjiga chiqqan bo'libo'ta maxfiy muhri bosilib Xorazm okrug raislariga NKVD dan kolxozdan chiqarilishi kerak bo'lgan shaxslar ismi sharifi va ular haqida ma'lumotlar yozilgan 62 varaqdan iborat ro'yhat taqdim etilib. Bu ro'yhatda keltirilgan shaxslarni zudlik bilan kolxozdan chiqaris talab etiladi..[6, C 7] Bu shaxslar asosan avval quloq qilinib mol mulki musodara qilinganlar, sobiq savdogarlar, yoki xonlik davrida yuqori lavozimlarda ishlagan mansabdorlarning avlodlari edi. Bundan ko'rinadiki Yangi iqtisodiy siyosat davrida davlatni oyoqqa turg'izgan shaxslar kollektivlashtirish davrida aksincha taqibga uchragan. E'tiborga loyiq yana bir tomoni shundaki, topshiriqni bajarishni istamagan uni bajarish muddatini cho'zgan, yoki kolxozdan chiqarilgan quloq xo'jaliklarini qayta kolxozga qabul qilgan qishloqlar raislari jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bu holatni Gurlan tumani Bazir qishlog'I raisi Safar Jumamurotovni avval kolxozdan haydalgan quloq xo'jaligi egalarini qayta kolxozga qabul qilganligi sababli u tomonidan kolxozga qabul qilingan quloqlar bilan birga 6 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanganligida ko'rishimiz mumkin.[7,C.47] 1928-yildan boshlab o'tkazilgan kollektivlashtirish 1931-yilga kelib o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsata boshlaydi. Qishloqlarda yashayotgan millionlab insonlar surgun qilingach, qolgan odamlarda ham sovet hukumatiga nisbatan kuchli nafrat uyg'onadi. Shu sababli 1931-yilda mamlakat bo'ylab mo'ljalidagi g'alla hosili olinmaydi. Boz ustiga, o'sha yili hosilning katta qismi kuzda ekish uchun olib qo'yiladi. Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat vakillari rejani bajarish bahonasida dehqonlar qo'lidagi barcha donni tortib oladi.

Mahalliy hukumatlarning rejani kamaytirish haqidagi iltimosi Moskva tomonidan rad etiladi. Masalan, qozog'istonliklar 1931 yilda Stalindan bug'doy tayyorlash rejasini 75 million puddan 50 milliongacha tushirishni so'raydi, ammo

Stalindan «munozara qilmaslik va ishlash kerak»ligi bo'yicha javob oladi. Norasmiy ma'lumotlarga ko'ra, o'shanda O'zbekistonga yarim milliondan 1 milliongacha odam non qidirib kelgan va ularning asosiy qismi ocharchilik yillari tugagach o'z yurtiga qaytib ketgan. Ularning bir qismi O'zbekistonda yashab qolgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan shuni aytish mumkinki Sovet hukumati yangi iqtisodiy siyosatni kommunizmning og'ir asoratlaridan oyoqqa turish uchun foydalandi. Aholiga dehqon ommasiga erkinlilar, savdo- sotiq faoliyati uchun potentlar bberdi. Natijada oddiy xalqning og'ir mehnati tufayli inqirozdan chiqa oldi. Minnatdorchilik o'rniga kapitalizm unsurlarini qaytadan yo'qotish ishlari boshlab yuborildi. Natijada kechagina peshona teri orqasida oz muncha mulkka ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari "mushtumzo'rlar" deya atalib taqib ostiga olindi. Ota bobolaridan meros bo'lgan yerlar tortib olindi. Qarshilik ko'rsatganlar qattiq jazolanib mulki musodara qilindi, o'zlari esa chekka o'lkalarga surgun qilindi. O'z odamiyligini yo'qotmasdan nochor ahvolda kolxozlardan haydalgan hamqishloqdoshlariga yordam bergan qishloq raislariga qarshi jinoiy javobgarlik qo'llanildi.

Kollektivlashtirish esa qishloq xo'jaligiga og'ir talofat yetkazdio. Chorvachilik tanazzulga uchradi. Aholi orasida ocharchilik avj oldi. Bularning hammasi quloqlashtirish va kollektivlashtirish siyosatining og'ir oqibatlari edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Аминова Р.Х. Из истории коллективизации в Узбекистане // История СССР. 1991, № 4
2. <https://tarix-kitob.uz/ozbekiston-tarixi-10/ozbekistonda-qishloq-xojaligini-kollektivlashtirish-siyosati-hamda-quloqlarning-surgun-qilinishi/>
3. Yunusova B. A Turdiboyeva M. Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) ning savdo va sanoat sohasidagi ahamiyati. "Journal of Innova,on in Educa'on al and Social Research" jurnali. 2024- yil - № 11 - B. 15.
4. Turg'unov Shaxzodbek Muhammadjon o'g'li. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish siyosati tarixshunosligi. "Conference of natural and applied sciences in scientificinnovative research" jurnali. 2024- yil - № 10 - B.102-103.
5. <https://tarix.sinaps.uz/lugat/kollektivlashtirish/>
6. Xorazm viloyati bo'limi arxivi 2-fond 5-royhat 12-hujjat 1935-yil C. 157
7. Xorazm viloyati bo'limi arxivi 2-fond 5-royhat 13-hujjat 1935-yil C. 223